



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 516 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
Aripova Sayida Abdullaxatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi.....	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
Umirova Guldon Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmonov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	
Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari	361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash	365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri	375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....	378
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности	386
Марасулова Доно Нигматуллаевна	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati	389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi	393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish	396
Yulchiyeva Shoxsanam	
Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе	399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
Р. К. Аuezova	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов	411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна	
O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi: tajriba va amaliyot	417
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tadbirlarning o'rni	423
G'aybullayeva Sabohat Ulug'bek qizi, Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati.....	426
Islomova Xafiza Azamatovna	
O'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati	430
Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna	
Boshqaruv kompetentligi tushunchasining pedagogik psixologik va menejment sohalaridagi ilmiy asoslari va evolyutsiyasi.....	434
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Muhandislik ta'limida zamonaviy kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish.....	438
Muxitdinov Abdurahob Abduvalievich	
Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirish	442
Nishanova Hafiza Vafogulovna	
Ilmiy maqola yozish kompetensiyasini rivojlantirishda statistik metodlarni integratsiyalashning ta'limiy samaradorligi	446
Rahimova Indira Quddrat qizi	
Sotsiologiyavistikaning asosiy tushunchalari va konsepsiyalari	451
Rustamova Mohimbonu Maxammadjon qizi	
Pedagogik mahoratni baholashda O'zbekiston va Kanada tajribasining qiyosiy tahlili	455
Tursinova Zoxida Sharabidinovna	
Basketbolning insonning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri: ilmiy tahlil.....	463
Umarjanov Alimardon Alisher o'g'li	
Talaba qizlar psixik salomatligi xususiyati deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil sifatida.....	466
Xasanova Mashxura Abduvalievna	
Ta'lim jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish texnologiyasi.....	471
Ortiqova Yulduz Akram qizi	
Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish	475
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni aniqlashda L. Starkining tanqidiy fikrlashni baholaydigan modifikatsiya qilingan testidan foydalanish metodikasi	479
Egamberdiyeva Nodira Melibayevna, Xaydarova Ra'no Anvarovna	
Akademik litseylarda fizikani o'qitish jarayoniga "Case-Study" metodini integratsiyalash	484
Batirov Behzod Baratovich	
Nasriy asarlarni o'rgatish samaradorligini oshirish	489
Maftunaxon Akbarova	



Autik spektr buzilishi bo'lgan bolalarda sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o'qitish	493
Norboyeva Zamira Ravshanbekovna	
Milliy libos dizaynida an'anaviy va zamonaviy elementlar uyg'unligi	496
Xo'jamurodova Sevinch Abdilmajidovna	
Роль дидактических игр в развитии пространственного воображения учащихся	499
Валиев А. Н., Иброхимова Д. Н.	
Технология проблемного обучения как средство формирования критического мышления при обучении русскому языку	505
Собирова Гулибарно Зайнитдин кизи	
Bo'lajak o'qituvchilarning amaliyot jarayonida raqamli pedagogik resurslardan foydalanish samaradorligi	510
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, To'xtayeva Robiya Ravshanbek qizi	

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING AMALIYOT JARAYONIDA RAQAMLI PEDAGOGIK RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li

ADU, Kompyuter injiniringi kafedrası katta o'qituvchisi

To'xtayeva Robiya Ravshanbek qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik amaliyot jarayonida raqamli pedagogik resurslardan foydalanish samaradorligi yoritilgan. Muallif raqamli texnologiyalarning ta'lim sifati, interaktivlik va mustaqil ta'limdagi o'rnini tahlil qiladi. Tadqiqotda 3–4-kurs talabalari ishtirok etib, so'rovnoma va kuzatuvlar orqali ularning raqamli vositalardan foydalanish darajasi va mavjud muammolari aniqlangan. Natijalarga ko'ra, talabalar raqamli texnologiyalarga qiziqish bildiradi, biroq metodik tayyorgarlik va texnik sharoit yetishmasligi samaradorlikka to'sqinlik qilmoqda. Muallif raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va metodik qo'llanmalarning zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: raqamli pedagogik resurslar, bo'lajak o'qituvchilar, pedagogik amaliyot, raqamli kompetensiya, zamonaviy ta'lim, interaktiv texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, metodik tayyorgarlik, texnik infratuzilma, masofaviy ta'lim.

Abstract: The article explores the effectiveness of using digital pedagogical resources during the teaching practice of future educators. The author analyzes the role of digital technologies in improving education quality, interactivity, and independent learning. The study involved 3rd and 4th year students. Through surveys and observations, their level of use and the challenges associated with digital tools were identified. Results show that while students' express interest in digital technologies, a lack of methodological preparation and limited technical infrastructure hinder their effectiveness. The author emphasizes the importance of developing digital competencies, conducting practical training, and creating methodological support materials.

Key words: digital pedagogical resources, future teachers, teaching practice, digital competence, modern education, interactive technologies, learning effectiveness, methodological preparation, technical infrastructure, distance learning.

Аннотация: В статье рассматривается эффективность использования цифровых педагогических ресурсов в процессе педагогической практики будущих учителей. Автор анализирует роль цифровых технологий в повышении качества образования, интерактивности и самостоятельного обучения. В исследовании приняли участие студенты 3–4 курсов. Посредством анкетирования и наблюдений были выявлены уровень использования цифровых средств и существующие проблемы. По результатам выяснилось, что студенты проявляют интерес к цифровым технологиям, однако недостаточный методический уровень подготовки и технические ограничения снижают эффективность их применения. Автор обосновывает необходимость развития цифровых компетенций, проведения практических занятий и создания методических пособий.

Ключевые слова: цифровые педагогические ресурсы, будущие учителя, педагогическая практика, цифровая компетентность, современное образование, интерактивные технологии, эффективность обучения, методическая подготовка, техническая инфраструктура, дистанционное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi nafaqat ta'lim jarayonining tashkiliy-uslubiy jihatlarini, balki pedagogik yondashuvlar va o'qituvchilik faoliyatining mazmunini ham qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, kelajakda pedagog kasbini tanlayotgan talabalarning



kasbiy-amaliy tayyorgarligida raqamli vositalardan oqilona va samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu boradagi ilmiy izlanishlar raqamli pedagogik resurslarning ta'lim samaradorligiga ta'siri, ularning o'quvchi faoliyatini faollashtirishdagi o'rni hamda o'qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishdagi funksiyalarini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib bormoqda. Bu jarayonda raqamli pedagogik resurslar muhim o'rin egallab, o'quv faoliyatining sifatini oshirish, interaktivlikni ta'minlash, talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda ^[1]. Raqamli pedagogik resurslar – bu raqamli formatda yaratilgan va ta'lim jarayonida foydalaniladigan har qanday axborot, vosita yoki texnologiyalardir. Ular o'quv jarayonining barcha bosqichlarida – bilim berish, nazorat qilish, tahlil va refleksiya, hamda baholash jarayonlarida faol qo'llaniladi ^[2]. Ilmiy manbalarda raqamli resurslar zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ajralmas qismi sifatida ko'riladi va ularning asosiy vazifasi o'quv materiallarini audiovizual, interaktiv va moslashuvchan shakllarda yetkazishdan iborat.

Raqamli pedagogik resurslarning turlari ko'plab omillar – texnologik imkoniyatlar, ta'lim mazmuni, o'quvchining yosh xususiyatlari va pedagogik maqsadlarga qarab farqlanadi. Amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan turlariga interaktiv darsliklar, multimediya vositalari, videodarslar, test modullari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar kiradi. Ta'limiy platformalar esa (xususan, Moodle, Google Classroom, Edmodo, Microsoft Teams, Canvas) o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil etishda, topshiriqlarni taqsimlashda, baholashda hamda o'quv faoliyatining monitoringini olib borishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, mobil ilovalar orqali bilim olish jarayoni istalgan joyda va vaqtda davom etishi mumkin bo'lib, bu raqamli resurslarning portativlik va qulaylik kabi afzalliklarini ko'rsatadi ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur resurslarning ta'limdagi funksional roli ham keng qamrovli bo'lib, ular o'quv materiallarini vizuallashtirish, ya'ni grafik, animatsion va audiovizual formatlarda taqdim etish orqali tushunishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish jarayonlarini – masalan, test natijalarini avtomatik baholash, ishtirokni elektron qayd qilish, o'quvchining rivojlanish dinamikasini tahlil qilishni soddalashtiradi. Raqamli resurslar, ayniqsa, masofaviy ta'limda muhim vositaga aylanib, o'quvchilarga geografik yoki vaqt jihatdan erkin sharoitda ta'lim olish imkonini beradi. Bu esa ta'limning inkluzivligi va individual yondashuvga asoslanganligini ta'minlaydi ^[4]. Raqamli pedagogik resurslar zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat yordamchi vosita, balki ta'limiy strategiyalarning markaziy elementi sifatida maydonga chiqmoqda. Ularning to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va o'qituvchining metodik arsenalini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida pedagogik amaliyot alohida o'rin tutadi. Bu jarayon nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyalashuvi orqali pedagogik kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Amaliyot davomida talaba-o'qituvchilar real ta'lim muhiti bilan tanishadi, dars jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish, baholash va tahlil qilish kabi faoliyat turlarini mustaqil amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi ^[5]. Pedagogik amaliyot nafaqat kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, balki zamonaviy metod va vositalarni o'zlashtirish uchun ham muhim bosqichdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur amaliyotning mazmuni va tuzilmasi bir nechta bosqichlardan iborat bo'lib, har biri bo'lajak o'qituvchining ma'lum bir kasbiy jihatini rivojlantirishga qaratilgan. Dastlabki bosqich – tayyorgarlik (diagnostik) davri bo'lib, bunda talabalar maktab muhiti, o'quvchilarning xususiyatlari, dars jadvali, fan o'quv dasturi bilan tanishadilar. Ikkinchi bosqichda darslar rejalashtiriladi: bu jarayonda o'quv maqsadlari belgilanadi, dars shakli va metodlari tanlanadi, o'quv materiallari strukturaviy jihatdan tizimlashtiriladi. Keyingi bosqichda esa talabalar amaliy darslarni olib boradilar, interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanadilar. Yakuniy bosqich – tahlil va refleksiya bosqichi bo'lib, unda o'tkazilgan darslar yuzasidan tahlil o'tkaziladi, o'z ustida ishlash strategiyalari ishlab chiqiladi.



1-rasm: Pedagogik amaliyot bosqichlari




Amaliyot davomida darslarni rejalashtirish, o'tkazish va tahlil qilish bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi. Darsni rejalashtirishda bo'lajak o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasi, sinf xususiyatlari, o'quv dasturining mazmuni va kompetensiyaviy yondashuv asosida dars maqsadlarini aniq belgilab olishi lozim. Dars jarayonini tashkil qilishda esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'quvchilarning faolligini oshiruvchi usullardan foydalaniladi. O'tkazilgan darslarning tahlili pedagogik refleksiya shaklida olib boriladi – bu jarayonda bo'lajak o'qituvchi o'zining kuchli va zaif jihatlarini tahlil qiladi, kelgusida ularni takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqaradi. Bu bosqich bo'lajak mutaxassisning o'zini o'zi baholash va rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, pedagogik amaliyotda raqamli resurslardan foydalanish ehtiyoji ham ortib bormoqda. Bugungi kunda dars jarayonida raqamli vositalarni qo'llash nafaqat innovatsion yondashuv, balki pedagogik samaradorlikning muhim mezoniga aylanmoqda. Bo'lajak o'qituvchilar amaliyot davomida interaktiv taqdimotlar, onlayn testlar, elektron platformalar, virtual laboratoriyalar, ta'limiy videoroliklar kabi resurslardan foydalanadilar [6]. Bu esa o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga, dars jarayonining ko'rgazmali va qiziqarli bo'lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, masofaviy yoki gibrid ta'lim sharoitida raqamli pedagogik vositalar o'qituvchining asosiy yordamchisiga aylangan. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish ularning professional tayyorgarligida ajralmas tarkibiy qism bo'lib qolmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli pedagogik resurslardan foydalanish holatini o'rganish maqsadida empirik tadqiqot olib borildi. Tadqiqotda asosan sifat va miqdoriy tahlil metodlaridan foydalanildi. So'rovnoma, kuzatuv va yarim strukturalashtirilgan intervyular asosida to'plangan ma'lumotlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning amaliyot jarayonida raqamli vositalardan foydalanish darajasi, ularning funksional maqsadlari va ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganildi. So'rovnoma 3–4-kursda o'qiyotgan 120 nafar pedagogika yo'nalishidagi talaba orasida o'tkazildi. Kuzatuvlar esa maktabdagi amaliyot davomida olib borildi va u orqali real dars jarayonlarida raqamli resurslardan qanday foydalanilayotgani tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning aksariyati (78%) raqamli pedagogik vositalardan dars jarayonida faol foydalanadi. Ular orasida eng ko'p qo'llaniladigan resurslar – PowerPoint taqdimotlari (65%), videodarslar (42%), Quizizz, Kahoot, Wordwall kabi interaktiv test platformalari (38%), Google Classroom va Moodle kabi ta'limiy platformalar (29%) bo'ldi. Raqamli resurslardan foydalanish maqsadlari esa asosan o'quv materialini ko'rgazmali bayon qilish, bilimlarni mustahkamlash, tezkor baholash va o'quvchilar bilan interaktiv muloqotni kuchaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, sinfdagi o'quvchilarning faolligini oshirish va dars jarayonini vizuallashtirishda raqamli vositalar samarali natija bergani kuzatildi.



2-rasm: Resurslardan foydalanish foizlari

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi ham tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholandi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalar o'zlarining raqamli savodxonligini o'rtacha darajada deb baholagan (54% o'rta darajada, 31% yuqori, 15% esa past darajada). Shu bilan birga, intervyular davomida talabalarning ko'pchiligi raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tayyorgarlik yetarli emasligini, ko'proq amaliy mashg'ulotlarga ehtiyoj sezayotganini ta'kidladi. Bu esa raqamli pedagogik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ularni nafaqat texnik, balki metodik jihatdan qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish muhimligini anglatadi. Empirik tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurslarga bo'lgan qiziqishi yuqoriligini ko'rsatadi, biroq ularning to'laqonli va samarali foydalanishi uchun zarur metodik ko'nikmalarni rivojlantirish, bu yo'nalishda amaliy-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash zarur. Bu esa raqamli



pedagogik kompetensiyani rivojlantirish orqali zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Raqamli pedagogik resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlash zamonaviy ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Biroq, mavjud holat tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak o'qituvchilar tomonidan raqamli vositalarni qo'llashda qator muammolar mavjud bo'lib, ular bu resurslarning to'laqonli va tizimli joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda ^[7]. Eng avvalo, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi raqamli vositalardan keng foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Ta'lim muassasalarida interaktiv doskalar, zamonaviy kompyuterlar, yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlanish darajasi har doim ham talab darajasida emas. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi raqamli muhitda samarali muloqotni cheklaydi. Ikkinchi muhim omil – bu bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat talabalar texnik jihatdan raqamli vositalardan foydalanishni bilsalar-da, ularni didaktik maqsadga muvofiq tanlash va samarali integratsiya qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat esa metodik yondashuvlar, pedagogik dizayn va o'quv maqsadlariga mos vositalarni tanlash bo'yicha yetarli tayyorgarlik yo'qligini ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli resurslarni darsning mazmuni va metodikasiga uyg'unlashtirish borasida tizimli yondashuvlar va tajriba yetishmaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va raqamli resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun bir qator taklif va tavsiyalar ilgari surilishi mumkin. Avvalo, o'qituvchilikka tayyorlov dasturlariga raqamli pedagogik texnologiyalarni o'rgatuvchi maxsus fanlarni tizimli integratsiya qilish zarur. Bu fanlar nafaqat texnik vositalardan foydalanish, balki raqamli didaktika, onlayn baholash vositalari, interaktiv kontent yaratish, media-ma'rifat kabi yo'nalishlarni ham qamrab olishi kerak. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar real sharoitda raqamli vositalarni qanday qo'llash bo'yicha tajriba orttirishlari lozim.

Bundan tashqari, pedagogika oliygohlarida va amaliyot bazalarida o'qituvchilar uchun raqamli savodxonlikni oshiruvchi malaka oshirish kurslarini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu kurslar orqali o'qituvchilar zamonaviy ta'lim platformalari, elektron ta'lim kontentlari bilan ishlash, o'quvchilarning raqamli faoliyatini monitoring qilish va individual yondashuv asosida o'qitish usullarini o'zlashtiradilar ^[8]. Shu bilan birga, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar ishlab chiqish orqali raqamli vositalarni darsga integratsiya qilishning samarali modelarini taklif etish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli pedagogik resurslardan samarali foydalanish ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda tizimli yondashuv, metodik va texnik qo'llab-quvvatlash hamda raqamli kompetensiyani rivojlantirish orqali sifatli natijalarga erishish mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, raqamli resurslarni o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylantirish nafaqat texnologik yangilik, balki zamonaviy o'qituvchining kasbiy zarurati sifatida qaralishi lozim. O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha aniqlanishicha, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik amaliyot jarayonida raqamli pedagogik resurslardan foydalanish holati o'zgaruvchan va ko'p omilli xususiyatga ega. Ularning aksariyati dars jarayonida raqamli vositalardan foydalanishga intilayotgan bo'lsada, bu boradagi bilim, ko'nikma va metodik tayyorgarlik darajalari turlicha. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interaktiv taqdimotlar, videodarslar, test platformalari va ta'limiy ilovalar eng ko'p qo'llaniladigan resurslar sirasiga kiradi. Biroq, raqamli resurslarning o'quv jarayoniga samarali integratsiyalashuvi uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar, dars mazmuniga mos vosita tanlash madaniyati va texnologik refleksiya ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Bundan tashqari, texnik infratuzilmaning chegaralanganligi va raqamli pedagogika bo'yicha maxsus metodik ta'limning yetishmovchiligi ham asosiy muammolar sirasiga kiradi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida raqamli resurslar alohida o'rin egallaydi. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchidan nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda interaktiv, texnologik jihatdan boyitilgan ta'lim muhiti yaratishi ham talab etiladi. Raqamli pedagogik resurslar aynan shu ehtiyojni qondirishda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ular o'quv materialini vizuallashtirish, mashg'ulotlarni differensiallashtirish, o'quvchilarning faolligini oshirish va ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha texnik va metodik kompetensiyalarni shakllantirish, bu borada integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriy hisoblanadi.

Kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun bir qator yo'nalishlar belgilanishi mumkin. Eng avvalo, raqamli pedagogik resurslardan foydalanish bo'yicha kompleks metodik modellar ishlab chiqish va ularning samaradorligini eksperimental asosda baholash zarur. Shuningdek, pedagogik amaliyotda raqamli resurslar bilan bog'liq kompetensiyalarni o'lchash indikatorlarini ishlab chiqish, ularning baholash mezonlarini aniqlashtirish ilmiy-nazariy jihatdan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, turli fanlar kesimida raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha fan-spesifik tadqiqotlar olib borish, raqamli vositalarning o'quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil ta'lim ko'nikmalari va tanqidiy fikrlashga ta'sirini aniqlash ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'riladi.



Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli pedagogik resurslardan samarali foydalanishga tayyorlash – bu ta'limda raqamlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydigan asosiy omil bo'lib, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-amaliy ishlar tizimli davom ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sodiqova N.N. Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'limga ta'siri: muammo va imkoniyatlar // Ta'lim va tarbiya fanlari. – 2025. – B. 369–372.
2. Усенова Г.С., Маигелдиева Ш.М., Исаева Г.Б. Развитие познавательной самостоятельности будущих педагогов на основе использования цифровых образовательных ресурсов // Зи: интеллект, идея, инновация. – 2024. – № 2. – С. 219–230.
3. Лжубимова Э.М. Формирование готовности будущего учителя к разработке цифрового образовательного контента // Современные проблемы науки и образования. – 2024. – № 1. – С. 1–18.
4. Fayzullaeva M. Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishda raqamli ta'lim resurslarini qo'llash // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – B. 169–174.
5. Гвоздев И.С. Влияние цифровых платформ на педагогическую практику учителей-предметников // Вестник науки. – 2025. – Т. 5, № 6 (87). – С. 423–431.
6. Akbarova H.K. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida samaradorligini oshirish: onlayn o'yinlar // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – B. 204–208.
7. Katansky A.A., Trotsenko A.A. Efficiency of digital educational resources application in universities // International Research Journal. – 2023. – B. 1136–1154.
8. Mamatkodiroy M.M. Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish // Farg'ona davlat universiteti ilmiy xabarlar. – 2023. – B. 63–69.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.